

## SO'Z BIRIKMASI VA UNGA YONDOSH HOLATLAR FARQI

**Rayhona Mirzoqulova**

*ToshDO'TAU ona tili va adabiyoti ta'limi yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

[mirzaqulovarayhona@gmail.com](mailto:mirzaqulovarayhona@gmail.com) /946098947

**Annotatsiya :** Ushbu maqolada so'z birikmasi va unga yondosh holatlar o'rtasidagi farq, ularning xususiyatlari va tilshunoslikda tutgan o'rni haqida so'z boradi. Shuningdek, so'z birikmasi va unga yondosh holatlar o'rtasidagi farqlarni o'quvchilarga tushuntirishda samarali metodik usullarni, xususan, didaktik o'yinlar va faoliyatlar orqali qanday tushuntirish mumkinligi haqida metodik tavsiyalar beriladi. Maqola tilshunoslikda bu mavzuning ahamiyatini ochib beradi va maktab o'quvchilariga bu tushunchalarni sodda, aniq va samarali tarzda qanday o'rgatish mumkinligini ko'rsatib o'tadi.

**Kalit so'zlar:** So'z birikmasi, yondosh holatlar, metodik usullar, grammatik tuzilma, tilshunoslik.

**Abstract:** This article discusses the difference between word combinations and related phenomena, their characteristics, and their role in linguistics. It also provides methodological recommendations on how to explain the differences between word combinations and related phenomena to students using effective methods, including games and activities. The paper highlights the importance of this topic in linguistics and demonstrates how these concepts can be taught to school students in a simple, clear, and effective way.

**Keywords:** Word combination, adjacent phenomena, methodological techniques, grammatical structure, linguistics.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются различия между словосочетаниями и сопредельными явлениями, их характеристики и роль в лингвистике. Также в статье представлены методические рекомендации по объяснению различий между словосочетаниями и сопредельными явлениями

*школьникам с использованием эффективных методов, включая игры и задания. Работа подчеркивает важность данной темы в лингвистике и демонстрирует, как можно обучить школьников этим понятиям простым, ясным и эффективным способом.*

**Ключевые слова:** *Словосочетание, сопредельные явления, методические приемы, грамматическая структура, лингвистика.*

Bugungi kun ona tili darsliklari o'quvchilarga mavzuni tushuntirishda nafaqat nazariy, balki amaliy yondashuvni ham talab qiladi. Har bir o'rganilayotgan mavzning ahamiyati, o'ziga xos xususiyatlarini keng ochib berish ona tili ta'limning talabi hisoblanadi. Ona tili o'qitishda muhim mavzulardan biri sintaksisdir. Sintaksisni o'rganish jarayonida esa, avvalo, so'z birikmasiga yuzlanamiz. So'z birikmalari tilning asosiy sintaktik birliklaridan biri bo'lib, tilni aniq va mukammal ifodalashda katta rol o'ynaydi.

Yondosh holatlar (ya'ni, til birliklari) – bu tillarda o'zi mustaqil ma'noga ega bo'lgan, ammo ma'lum bir tuzilish doirasida bir-biriga yaqin, ko'pincha birgalikda ishlatiladigan va biror ma'no ifodalovchi birliklardir. Bu holatlar so'z birikmasidan farq qiladi.

So'z va so'z birikmasi. So'z - bu tilda umumiy tushuncha anglatuvchi til birligi hisoblanadi. Har bir so'z alohida ma'no ifodalaydi va uning o'ziga xos grammatik vazifasi bo'ladi. Masalan, "yurmoq" so'zi qadam tashlash, harakatni bajarish kabi lekisik ma'noni anglatadi. So'z birikmasi esa ikki yoki undan ortiq mustaqil so'zning birlashishi orqali hosil bo'lgan grammatik birlikdir

So'z birikmasi va qo'shma so'z — bu ikki grammatik tushuncha bo'lib, ular o'rtasida bir qancha farqlar mavjud. ishlatiladi. Qo'shma so'z va so'z birikmasi orasidagi asosiy farqlar:

1. Mustaqil ma'no saqlanishi: So'z birikmasida har bir so'z o'z mustaqil ma'nosini saqlaydi, qo'shma so'zda esa birlashgan so'zlar yangi, o'zgacha ma'no hosil qiladi.

2. Yaratilish jarayoni: Soʻz birikmasi bir-birini toʻldiruvchi soʻzlar orqali quriladi, qoʻshma soʻz esa yangi soʻz sifatida hosil boʻladi va koʻpincha tasodifiy oʻzgaradi.

3. Izohlanish va oʻzgartirish: Soʻz birikmalarida soʻzlar alohida-alohida oʻzgarishi mumkin, qoʻshma soʻzlarda esa oʻzgarishlar kamroq yoki umuman boʻlmaydi.

Soʻz birikmasi va ibora. Soʻz birikmasi va iborani quyidagicha farqlash mumkin:

1. Maʼno. Soʻz birikmasi – har bir soʻzning maʼnosi birikmada oʻzgarishsiz qoladi (masalan, "qizil kitob" – qizil va kitob oʻz maʼnolarini saqlaydi).

Ibora – baʼzan soʻzlarning birikmasi boshqa maʼno beradi (masalan, "qora kun" – yomon kunni anglatadi, kunning qoraligini emas).

2. Ishlatilishi. Soʻz birikmasi – oddiy, aniq narsani tasvirlash uchun ishlatiladi.

Ibora –oʻziga xos, aniq va oʻzgaruvchan maʼno berishda ishlatiladi. Undagi soʻzlar birgalikda maʼlum bir tasavvur yaratadi.

3. Tuzilishdagi murakkablik. Soʻz birikmasi – oddiy tuzilishga ega. Ibora – koʻproq murakkab boʻlib, maʼnosi faqat kontekstdan tushuniladi.

Soʻz birikmasi va gap. Gap — bu toʻliq fikrni ifoda etuvchi sintaktik butunlik hisoblanadi, soʻz birikmasi esa maʼlum bir tushuncha anglatuvchi sintaktik birlikdir. Gap hamda soʻz birikmasi orasidagi asosiy farqlarni ushbu jadval orqali ifodalash mumkin:

| Belgilar  | Soʻz birikmasi                        | Gap                                                  |
|-----------|---------------------------------------|------------------------------------------------------|
| Tuzilishi | Ikki yoki undan ortiq soʻzdan iborat. | Gap boʻlaklaridan tashkil topgan sintaktik butunlik. |
| Maʼnosi   | Toʻliq fikr bildirmaydi.              | Toʻliq fikr bildiradi                                |

|                           |                                                                  |                                         |
|---------------------------|------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------|
| <b>Sintaktik vazifasi</b> | Gap tarkibida qanday sintaktik vazifada kelishidan anglashiladi. | Mustaqil birlik                         |
| <b>Misollar</b>           | Yangi mashina, katta bino.                                       | Yangi mashina keldi.<br>Binolar quladi. |
| <b>Amaliy qo'llanishi</b> | So'zlar o'rtasidagi bog'lanishni ko'rsatadi.                     | Muloqot, ifoda, tushuntirish vositasi.  |

So'z birikmasi va yondosh holatlar o'rtasidagi farqni maktab o'quvchilariga tushuntirishda turli metodik usullarni qo'llash mumkin. Quyidagi o'yinlar va faoliyatlar orqali bu tushunchalarni o'quvchilarga sodda tarzda tushuntirish mumkin:

1. "So'z birikmasini top" o'yini. O'quvchilarga turli so'zlarni berib, ular bilan so'z birikmalarini yaratishni so'raysiz. Keyin esa bu birikmalarning har birining qanday ma'no anglatishini va ular orasidagi grammatik bog'lanishni tushuntirasiz.

2. "So'zlar bo'laklarini ajratish" o'yini. O'quvchilarga so'z birikmalarini berib, ularni tarkibiga ajratishni va har bir so'zning qanday ma'no anglatishini so'raysiz. Bu usul o'quvchilarga so'z birikmasining tuzilishini tushunishga yordam beradi.

3. "Yondosh holatlar izlash" o'yini. O'quvchilarga matnlar berilib, ularga yondosh holatlarni izlab topishni va ular bilan so'z birikmasi orasidagi farqni tushuntirishni so'raysiz.

So'z birikmasi va unga yondosh holatlar tilshunoslikda juda muhim o'rin tutadi. Ularning o'ziga xos grammatik tuzilishi, semantik ma'nosi va kontekstdagi roli haqida tushunchalar o'quvchilarga ona tili ta'limini puxta o'rganishda yordam beradi. Maktab o'quvchilari uchun metodik usullar va o'yinlar orqali bu

tushunchalarni tushuntirish o'quv jarayonini yanada samarali qiladi va tilni o'rganishga qiziqishni oshiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Anorbekova A., Mirzayeva Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2011.
2. M Kurbanova, Hozirgi zamon o'zbek tili (Sodda gap sintaksisi uchun materiallar)
3.  
[https://fayllar.org/soz\\_birikmasi\\_va\\_boshqa\\_til\\_birliklari\\_sintagma\\_iboragapnning.html](https://fayllar.org/soz_birikmasi_va_boshqa_til_birliklari_sintagma_iboragapnning.html)
4. [https://azkurs.org/bitishuv\\_munosabatiga\\_kirgan\\_sozlar\\_reja\\_bitishuv\\_haqidamosla.html](https://azkurs.org/bitishuv_munosabatiga_kirgan_sozlar_reja_bitishuv_haqidamosla.html)
5. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. Toshkent, 2006